In general ecological security provide and emergency ecological of situations prevent to take state of the policy priority from directions one is , it is further develop and efficiency increase for systematic and complex This approach is required . research results state policy improvement and ecological security increase according to strategic decisions acceptance to do for scientific basis as service to do possible . Therefore , ecological security issues further deeper study , international experience wide current to grow and advanced innovative from technologies use current task as remains .

Used literature

1. **Beck, U.** (1992) *Risk Society: Towards a New Modernity* . London: Sage Publications .
2. **Brown, LR** (2003) *Plan B: Rescuing a Planet under Stress and a Civilization in Trouble* . New York: WW Norton & Company.
3. **Ehrlich, PR** (1968) *The Population Bomb* . New York: Ballantine Books .

4. **Giddens, A.** (2009) *The Politics of Climate Change* . Cambridge: Polity Press.
5. **Hodzhiev , BX** (2010) *Ecological security and stable development* . Tashkent : Uzbekistan Sciences academy publishing house .
6. **Rahimov, O.** (2018) *Ecological management system and innovative approaches* . Tashkent : Uzbekistan Republic Ecology ministry publishing house .
7. **Tillaev , N.** (2015) *Uzbekistan ecological problems and their solutions* . Tashkent : Ecology publishing house .
8. **United Nations Environment Program (UNEP)** (2022) *Global Environmental Outlook 7: Healthy Planet, Healthy People* . Nairobi : UNEP.
9. **World Bank** (2021) *The Cost of Environmental Degradation: A Case Study for Uzbekistan* . Washington, DC: World Bank Publications .
10. **International ecological agency (IEA)** (2020) *Global Environmental Strategies and Policies* . Geneva : IEA Publishing

**O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish yo'llari, olib borilayotgan islohtlar
va rivojlanishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.**

Maftuna Ashurova

Denov tadbirkorlik pedagogika instituti

Raqamli iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

Jumaniyozova Nazokat Olim qizi

Denov tadbirkorlik pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish yo'llari, olib borilayotgan islohotlar va rivojlanishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar haqida so'z yuritiladi. Ichki turizmni rivojlantirish yurtimizda turizm salohiyatini oshirishga va turistlar sonining oshishiga xizmat qiladi. Maqolada yurtimizdagi turizm salohiyatiga ega bo'lgan madaniy, tarixiy, me'mori va ko'ngilochar joylar ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda turizm bo'yicha kadrlar tayyorlash, tarixiy turizm layoqariga ega bo'lgan joylarda rekonstruksiya ishlarini olib borish va yangi joylar barpo etish va ichki turizmning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ichki turizm, infratuzilma, kadrlarni tayyorlash, islohotlar, tarixiy madaniy ob'yektlar.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish yurtimizga turistlar oqimini oshirish va o'z vatandoshlarimizni ham yurtimizdagi turistik maskanlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Ichki turizmni rivojlantirish, nafaqat, tarixiy joylar haqida ma'lumotlar berish balki boshqa davlatlarda ham yurtimiz haqidagi ijobiy tasavvurini shakllantiradi. Ushbu maqolada yurtimizning turizm salohiyati va bundan keyingi rivojlanishida olib borilayotgan islohotlar haqida so'z yuritiladi.

Ichki turizmni rivojlantirish yo'lida quyidagi muammolar mavjud:

Infratuzilma muammolari: Aksar sayyohlik obyektlariga olib boruvchi yo'llarning holati yomon, transport xizmatlari yetarli emas, turar joylar sifati past.

Axborot tanqisligi: Ichki sayyohlar uchun kerakli ma'lumotlar, marshrutlar, narxlar haqida ochiq va doimiy yangilanib turadigan manbalar yetarli emas.

Reklama va targ'ibot yetishmasligi: Ko'plab mahalliy sayyohlar o'z yurtidagi go'zal joylardan bexabar.

Narx siyosatining mos emasligi: Ba'zida ichki turistlar uchun xizmatlar xorijiy mehmonlarga qaraganda qimmatroq bo'lib qoladi.

Kadrlar malakasi: Ba'zi hududlarda mahalliy gidlar yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlar etarlicha malakaga ega emas.

Infratuzilma muommolari bu bizda kuzatilayotgan katta muommolardan biri hisoblanadi. Chunki bizda hali turistik maskan qilinmagan ko'plab joylar mavjud. Mazkur hududlarga kam borilayotganining sababi uchun yo'l infratuzilmasining yaxshimasligi turistik zona sifatida ro'yhatga kiritilmaganligida.

Axborot tanqisligi: Yuqorida keltirilganidek ba'zi joylar haqida bizda hali ma'lumot yetarli emas. Biz marketingni rivojlantirishimiz kerak shundagina yurtimizdagi barcha diqqatga sazovor joylar turistlar nazaridan chetda qolmaydi.

Ichki turizmni rivojlantirish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

Transport va infratuzilmani yaxshilash: Sayyohlik yo'llarini ta'mirlash, qulay transport vositalari yo'lga qo'yish.

Axborot platformalarini yaratish: Mobil ilovalar, internet saytlar orqali sayyohlar uchun qulay axborot tizimini tashkil etish.

Reklama va targ'ibotni kuchaytirish: Televizion, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ichki turizm bo'yicha reklama materiallarini ko'paytirish.

Maxsus imtiyozlar joriy qilish: Oila, talabalar yoki pensiya yoshidagi sayyohlar uchun chegirmalar yaratish.

Kadrlar tayyorlash: Hududiy kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida turizmga oid maxsus kurslar ochish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ichki turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki fuqarolarning yurtga mehrini oshirish, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni anglashiga xizmat qiladi. Kelgusida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish orqali ichki turizmning barqaror o'sishiga erishish mumkin. O'zbekiston ichki turizmni rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-ma'naviy yuksalish ham ta'minlanadi. Muammolar mavjud bo'lishiga qaramay, ular ustida tizimli ishlov olib borilsa, mamlakat aholisi orasida ichki turizmga bo'lgan qiziqish keskin ortadi va bu soha milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanishi mumkin. Hozirda ichki turizmni rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar samarali bo'lmoqda va yurtimizda turizm sohasi oldingiga qaraganda ancha o'sgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, T.: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4230-sonli “Ichki turizmni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
3. Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy veb-sayti: www.motach.gov.uz
4. Qodirova D. “Turizm menejmenti”, T.: Iqtisodiyot, 2020.
5. Jalilov A. “Ichki turizmni rivojlantirish strategiyalari”, “Turizm” jurnali, 2022, №2.

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH USULLARI

Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna –

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

Qulmatova DildoraBozarovna

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 202-guruh talabasi

Annotatsiya: Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda har bir o'qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Quyidagi maqolada ayrim misollar orqali ona tili darslarida nutq o'stirishning ayrim usullaridan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: ona tili darslari, metodika, boshlang'ich ta'lim, nutqiy kompetensiya, rol o'ynash metodi, ta'lim texnologiyalari, ijodiy fikrlash, dars metodlari

Kirish

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham lug'aviy-grammatik munosabatlar tizimi, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari tizimi ham yangilandi va rivojlantirildi. Ona tilining yangilangan yo'nalishidan asosiy maqsad o'quvchilarning o'z ona tilida fikrini to'g'ri, aniq, ravon va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili darslarining asosiy vazifasi sanaladi. O'quvchilarining til o'rganishi va nutqiy rivojlanishidagi muhim bosqich boshlang'ich ta'lim davri hisoblanadi. Integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini har tomonlama shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning nutqini o'stirishda nafaqat an'anaviy balki integrativ yondashish hozirgi zamon talabi desak yanglishmaymiz. Bu haqida muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Maktablarni chinakkam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim- tarbiyaning integrativ usullarini qo'llash" [1;53] gi so'zlari, belgilab bergan vazifalarini amalga oshirishda ushbu integrativ usullarni, ularning avzalliklarini o'rganish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim jarayonida til o'rganishning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki u o'quvchining ijtimoiy, madaniy va faoliyatida samarali muloqot qilishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada aynan boshlang'ich sinf o'quvchilariga nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda qo'llaniladigan samarali metod va vositalar, ularning pedagogik va psixologik asoslari, shuningdek, dars jarayonida qo'llashga oid amaliy tavsiyalar yoritib beriladi. Mazkur tadqiqot ta'lim sifatini oshirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma hamda og'zaki nutqini shakllantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman.

“Hikoya”

O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. O'quv jarayonida turli fanlar, faoliyat turlari va kompetensiyalarni uyg'unlashtirish asosida o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan integrative yondashuv ham bor. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va o'qish savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro'yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendentsiyalari ustunlik qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasi quyidagilardan iborat.

Aniq va to'g'ri fikr bildira olish.

Og'zaki va yozma muloqotda ishtirok eta olish.

Konteksga mos ravishda til birliklaridan foydalana olish.

Tinglab tushunish va javob bera olishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda darsliklardagi mashqlar bilan ishlash, topshiriqlarning mazmunini tushunish muhimdir. O'quvchilar avval so'zlar va gaplar asosida fikrni ifodalashni o'rganadi, so'ngra

gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda bog‘lab, oddiy matnlar tuzishga o‘rgatiladi. O‘quvchilarga nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda dars jarayonining tashkil etilishi, metodik yondashuv va o‘qituvchining ustuvor roli muhim sanaladi. O‘quvchilar biror mavzuni o‘zlashtirar ekan, shu bilan birga tilni ham faol o‘rganadi. Masalan 4-sinf ona tili darsligidagi mashqlardan biriga e‘tibor bersak.

5-mashq. Hikoyani o‘qing.

Bobom biznikiga tez-tez kelib turardi. Har doim kelganlarida menga yoqadigan ertak kitob olib kelardi. Bobom kelganlarida ukam ikkimiz yonlariga yotib olib, ertak eshitardik. Bobom ertakni mana bunday boshlardilar: “Tong saharlab yo‘lga tushdim. Yo‘l yurdim, yo‘l yursam ham mo‘l yurib, katta avtobuslar yuradigan katta ko‘chaga chiqdim. Shaharga boraman, deb avtobuslardan biriga qo‘l ko‘tardim...”

Hikoyani davom ettiring. Unda shunday bir loyiha haqida aytingki, hali buni hech kim o‘ylab topmagan bo‘lsin.

Masalan: Avtobus yer ostida yurar ekan [2;8-bet]

Bu mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalari, izlanish va mustaqil fikrlash malakalari, yozma va og‘zaki nutqini rivojlanadi. O‘ylab, fikrlaydilar, hayolan ssenariy tuzib, tahlilni amalga oshiradilar. O‘qituvchining darsdagi faoliyati nafaqat bilim berish, balki o‘quvchini fikrli o‘quvchiga aylantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. 4-sinf darsligida ham o‘quvchining tafakkuri, nutqi, mantiqiy fikrlash salohiyati va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda asosiy e‘tibor qaratilgan. Bu kabi o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan mashqlarni o‘quvchilarga bajartirishda o‘qituvchining puxta tayyorlangan dars rejasi, metodik yondashuvi va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yana bir usuli esa rol o‘ynash metodidir. Rol o‘ynash – o‘quvchilar o‘qish darsligidagi ma‘lum hikoyani sahnalashtirishadi va bu orqali to‘g‘ri va samarali muloqot qilishni o‘rganishadi. bu o‘quvchilarni real hayotdagi muloqot holatlariga yaqinlashtiradigan, ularda og‘zaki nutqni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladigan samarali metodlardan biridir. Bu metod ayniqsa boshlang‘ich sinflarda tilni faol o‘rgatish va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda juda foydali.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish, ularni mantiqiy, izchil va mazmunli fikr yuritishga o'rgatish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda og'zaki mashqlarni savol-javob tarzida balki o'quvchilarning o'zlariga yangi gaplarni, fikrlarni tuzdirish orqali olib borilsa o'quvchining nafaqat tilda savodxon bo'lishini, balki tafakkurini shakllantirish, dunyoni mantiqiy tushunish va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish malakasini rivojlantiradi. O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. O'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Bu boradagi tadqiqotlar, amaliy tajribalar va metodik tavsiyalarni chuqurlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarda til va nutq bilan bog'liq ko'nikmalarni turli fanlar, amaliy mashg'ulotlar hamda hayotiy vaziyatlar orqali uyg'unlashtirib rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda integrativ yondashuvning qo'llanilishi o'quvchilarning nafaqat tilni o'zlashtirish darajasini, balki ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatdan ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham bu metodika boshlang'ich ta'lim tizimida samarali va istiqbolli yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Takliflar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchini faol muloqotga jalb qilish, biror mavzu bo'yicha og'zaki-yozma loyihalar yaratishga jalb qilish lozim.
2. O'quvchilarga hayotiy rollar asosida muloqot qilish, rasmlardan foydalanib fikr bildirish, fikrlarini tez va erkin ifodalashga o'rgatish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. "Adolat" milliy huquqiy axbarot markazi. - T.: 2022 y. - 152 b.
2. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. / M.E. Toirova - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 88 b.
3. Abdullayeva, M. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi." Toshkent: O'zR TA, 2020.

4. Vygotsky, L.S. "Pedagogik psixologiya." Moskva, 1991.
5. Qurbonova, G. "Til o'rganishda interfaol metodlar." O'zMU nashriyoti, 2022.
6. Mavlonova, R. "Ona tili ta'limida innovatsion texnologiyalar." TDPU, 2021.
7. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).

Time in colors: Capturing memory, past and life moments in painting.

**Termez State University
Faculty of National Costume and Art
Painting Workshop, 1st year student
Sadatova Rukhshona**

Key terms: painting, memory, past, moments of life, aesthetic expression, visual language, individual approach, concept of time, visual thinking, psychology of color.

Abstract

This article discusses how time, memory, and moments of the past can be expressed in the art of painting. It discusses how artists “capture” life events through color and composition, and what emotions they fill them with. The article also analyzes the reflection of the concept of time in the human mind through color psychology and visual language.

Art is a means of expressing a person’s inner world, memories, and dreams in visual form. In particular, painting is not only a copy of the external landscape, but also a reflection of how the artist perceives time, memory and life. Through the medium of colors, past moments, forgotten feelings and memories come to life.

When we observe paintings, we often see a whole life story from one picture, the tone of the past years at a glance. In this, the artist "catches" time through the visual language. Because the human mind does not always perceive time linearly - it is sometimes embodied in memories, colors, feelings for an object.

For example, among Uzbek artists, some works by Chingiz Ahmarov or Rakhim Ahmedov reflect our national past, traditions, various stages of people's life. In their work, colors have become a means of expressing time: warm and pastel colors symbolize nostalgia, warm memories, and cold colors symbolize loss or transience.

The connection between color and memory

Many studies on color psychology also show that certain colors evoke certain memories in humans. For example, yellow often brings to mind sunny days in childhood, while green evokes memories related to nature and tranquility. In this regard, by choosing colors, the artist uses not only his own memory, but also the memory of the viewer.

The art of capturing moments of life

In painting, every moment can become eternity. For example, a simple conversation over tea, sunlight falling on a courtyard, the gaze of an old man on the street - these

are, in the artist's eyes, a deep meaning and a trace of time. In this respect, an artist is not a person who writes down time, but a person who feels it and colors it.

Among today's modern artists, there are also many young artists who express their memories through abstract shapes, colors or textures. Their work is an attempt to immortalize the fleeting moments of life through art.

Conclusion

Capturing time and reviving memory through the art of painting is the true magic of art. Each work is a world, a memory, a moment. And the artist is the bridge that keeps them forever in our lives. The past expressed through colors is the most sincere and deepest layer of art.

Literature used:

1. Ahmedov R. – Fundamentals of Uzbek Fine Arts. – Tashkent: San'at, 2007.
2. Yusupov B. – Painting and its modern interpretation. – Termez: TDPU Publishing House, 2019.
3. Boym S. – The Future of Nostalgia. – New York: Basic Books, 2001.
4. Gombrich E. H. – History of Art. – Tashkent: UzRFA, 1998.
5. Jung C. G. – Psychology and symbols of art. – Moscow: Nauka, 1995.
6. Materials of the Union of Artists of Uzbekistan – Collection of Artists. – 2020–2024.

Ta`lim - tarbiya jarayoniga o`qituvchi tovush intensivligining ta`siri.

Pardaboyev A.

abduraximpardabaev@gmail.com

Jizzax politexnika instituti "Energetika va elektrotexnologiyasi" kafedrasida katta o`qituvchisi.

Jizzax politexnika instituti talabasi

Raxmatulloyev Bobomurod

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim- tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qituvchi tovush intensivligi holatining shu jarayonga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu ta'sirning asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, bu hodisaga asosiy omillarning umumlashgan ta'siri va natijalarining ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan. Tegishli usullarni qo'llash orqali ta'minlanishi mumkin bo'lgan ta'sir darajasiga erishish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi ovozi, motivatsiya, ta'lim - tarbiya, baland ovoz, tembr, yumshoq ovoz, stress.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining sifati ko'p jihatdan o'qituvchilar va ularning pedagogik mahoratiga bog'liq. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida o'qituvchilari pedagogik faoliyatining mohiyati va mazmuni murakkablashdi. Shu munosabat bilan butun ta'lim-tarbiya jarayoniga turli psixologik, fiziologik va pedagogik omillarning ta'sirini chuqur o'rganish bo'yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yerda asosiy ta'lim - tarbiya omillaridan biri o'qituvchi ovozi hisoblanadi. Mazkur mavzu borasida ko'plab yozilgan va tahlillar o'tkazilgan,, chunki ta'lim –tarbiya jarayoni va uning atrofida sodir bo'ladigan barcha hodisalar u yoki bu darajda shu omil bilan bevosita bog'langan.

Og'zaki muloqot vositalari va ularning xususiyatlari

Muloqotni olib borish vositasi sifatida turli ifodalash turlaridan foydalanish mumkin. Muloqat aloqa vositalarini ta'riflash tasniflash imkoniyatlari nuqtai nazaridan barcha xilma-xil yondashuvlari, ularni tahlil qilishning oxir-oqibat ularni og'zaki (ya'ni, so'zlar, nutq orqali) va og'zaki bo'lmagan (imo-ishoralar va yuz ifodalari orqali) turlarga bo'linishgacha integratsiyalash, ya'ni kamaytirishga imkon beradi.

Og'zaki nutqiy muloqotning xususiyatlarini ko'rib chiqaylik. Nutq insonning muloqot darajasini tavsiflovchi o'zaro ta'sirning asosiy omili va regulyatori hisoblanadi. Muloqot va nizolarni bartaraf etish madaniyatiga birinchi navbatda nutq darajasida erishiladi.

Maqsadga qarab, u quyidagilar bo'lishi mumkin:

- tushuntirish, bu erda asosiy narsa o'yin-kulgi, qiziqish, e'tiborni qo'llab-quvvatlash;
- axborotli, bu nafaqat qiziqish uyg'otadi, balki mavzu yoki hodisa haqida yangi tushunchalar beradi;
- ilhomlantiruvchi va insonning his-tuyg'ulariga qaratilgan;
- har qanday o'rinlarni mantiqiy asosli isbotlash yoki rad etishni o'z ichiga olgan ishontirish;
- harakatga chaqirish. Harakatga chaqiruv to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bo'lishi mumkin va harakatning o'zi kechiktirilgan yoki darhol bo'lishi mumkin.

Ovoz texnikasi:

1. Gap ohangi (gap ohangi, ovozi):

- muloqotda bir ishtirokchining boshqasiga, uning harakatlariga, so'zlariga munosabatining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi;
- haqiqiy munosabatni yashira oladi;
- so'zlovchining samimiyligi, rostligi, aytgan gapining ahamiyatliligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi;
- sub'ektlarning munosabatlarini (simpatiya yoki antipatiya) tahlil qilish imkonini beradi.

Ohang so'zlarga mos kelmasligi mumkin.

2. Ovozning balandligi - diqqatni faollashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi (ba'zi hollarda - kuchaytirish yordamida, boshqalarida - ovoz balandligini pasaytirish orqali).

3. Ovozning shitobi va tezligi - diqqatni sekinlashtirib, uni qayta tiklashingiz mumkin.

4. Pauza - mohirlik bilan saqlanadi, sheriklarning e'tiborini suhbat yoki hikoyaning muhim, zarur joyiga qaratishga yordam beradi.

Ovoz ohangi har doim vaziyatga qandaydir munosabat bilan shakllanadi va insonning ichki dunyosini aks ettiradi. Demak, ovozning ohangi va ovoz balandligidagi o'ziga xos bo'lishi uning ta'sirini oshiradi. O'quv jarayoni va amaliyoti shuni ko'rsatadiki, og'zaki muloqot pedagogik jarayonning asosini tashkil qiladi. Bu o'qituvchining barcha xususiyatlari - uning bilimdonligi, shaxsiy xususiyatlari, bilim va ko'nikmalari, pedagogik mahoratlar va ular ifodalanishining asosiy vositadir.

Endi ushbu ta'sirlarning bir nechta asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'lim- tarbiya jarayonida tarbiyachi bilan tarbiallyanuvchi o'rtasida bevosita muloqat sodir bo'ladi. Dars muhitini olaylik, bu ayni joyda o'qituvchining ovozi o'quvchilarni o'quv jarayoniga rag'batlantirishi va jalb qilishi mumkin. Yoqimli, yumshoq, ishonchli ovoz o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undaydigan qulay muhit yaratishi mumkin. Aksincha, qo'pol, yoqimsiz ovoz o'quvchilarning stressini va

nafratini keltirib chiqarishi mumkin, bu ularning motivatsiyasini va fanga qiziqishini kamaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida o'qituvchining ovozi o'quvchilarning ma'lumotni saqlashiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, baland tovush murakkab tushunchalarni tushunish va eslashni osonlashtiradi, past ovoz esa fakt va tafsilotlarni eslab qolishga yordam beradi.

Ovoz tovushi o'qituvchining obro'sini shakllantirish vositalaridan biri bo'lishi ham mumkin. Ishonchli, xotirjam, do'stona ovoz malakali va ishonchli o'qituvchi qiyofasini yaratadi, bu esa o'quvchilar tomonidan hurmat va ishonchni uyg'otadi. Boshqa tomondan, noaniq, asabiy, baland ovoz o'qituvchining obro'siga putur etkazishi va uning talabalarga ta'sirini kamaytirishiga olib kelishi mumkin.

Pedagogning tovush intensivligi holati ayniqsa, kichik yoshli o'quvchilar bilan hissiy aloqa o'rnatishga yordam beradi. Yumshoq va mayin ovoz o'quvchilarni xavfsiz va qulay his qilishiga yordam beradi, bu esa o'qituvchi va talabalar o'rtasida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Baland va tajovuzkor ovozlarning salbiy ta'siri o'quvchilarda stress, bosh og'rig'i va eshitish qobiliyatini pasayishiga hatto uni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida ularning diqqatini bir nuqtada jamlash va uni saqlash holatlariga (konsentratsiyasiga), e'tiboriga va umumiy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Shunday qilib, o'qituvchining ovozi o'quv, pedagogik va tarbiyaviy jarayonlarda muhim vosita bo'lib, o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga yordam berishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ovozni o'zgartirish masalasiga kelganda, uning bir necha usuli mavjud va ularni tegishli ravishda amalga oshirilishi mumkin. Ulardan ba'zilari, masalan, ovoz balandligidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu ovozingizni o'zgartirishning eng oson usullaridan biridir. Ovoz balandligini balandroq yoki pastroq qilish uchun siz ilova yoki dasturdan foydalanishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim - tarbiya jarayoniga o'qituvchi tovush intensivligining ta'siri ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Demak, bu holatlardan bevoqif tegishli fikir va xulosalarni chiqargan holda, faqatgina mazkur ta'sirlarning ijobiy jihatlarini ta'lim – tarbiya jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiq hisolanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorelov, I.N. Siz qanday muloqot qilishni bilasizmi / I.N. Gorelov, V.F. Jitnikov. – M., 1991 yil "Akademiya" markazi, 2000 yil.

2. Bordovskaya, N.V. Pedagogika: universitetlar uchun darslik / N.V. Bordovskaya, A.A. Rean - Sankt-Peterburg: Peter, 2000. - 304 p.
3. Grexnev, V.S. Pedagogik muloqot madaniyati / V.S. Grexnev. – M., 1990 yil.
4. Pedagogik faoliyatga kirish / A.S. Robotova [va boshqalar]; A.S. Robotova umumiy tahriri ostida. – M.: Nashriyot uyi.

**METALLARNI KESISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH VA
KESISH JARAYONINI OSONLASHTIRISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Abdisaidov Nodirbek Akmal o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

abdisaidovnodirbek@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной работе рассматривается автоматизация процесса резки металлов и совершенствование методов упрощения процесса резки. Резка металлов имеет важное значение в производственной сфере, требуя внедрения новых технологий для повышения качества и эффективности. Автоматизация ускоряет процесс резки, снижает влияние человеческого фактора и уменьшает количество ошибок. Кроме того, совершенствование методов резки способствует экономии энергии и снижению расхода материалов. В исследовании анализируются современные станки с ЧПУ, технологии лазерной и плазменной резки, а также роботизированные системы. Полученные результаты могут быть применены для повышения эффективности процесса и улучшения качества производства. Представлены передовые системы автоматизации и инновационные методы резки, что способствует увеличению конкурентоспособности промышленного сектора.

Ключевые слова: *резка металлов, автоматизация, технологии резки, ЧПУ, лазерная резка*

ANNOTATSIYA

Ushbu ish metallarning kesish jarayonini avtomatlashtirish va kesish jarayonini osonlashtirish usullarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Metall kesish ishlab chiqarish sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning sifatini, samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Avtomatlashtirish metall kesish jarayonini tezlashtiradi, inson omilini kamaytiradi va xatoliklarni oldini oladi. Shuningdek, kesish usullarini takomillashtirish orqali energiya tejankorligi va material sarfini kamaytirish mumkin. Ishda zamonaviy CNC uskunalari, lazer va plazma kesish texnologiyalari, robotlashtirilgan tizimlar tahlil qilinadi. Olingan natijalar kesish jarayonining samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish sifatini yaxshilash uchun qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotda ilg'or avtomatlashtirish tizimlari va innovatsion kesish usullari taqdim etiladi, bu esa sanoat sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Metall kesish, avtomatlashtirish, kesish texnologiyalari, CNC, lazer kesish

ABSTRACT

This study focuses on the automation of metal cutting processes and the improvement of methods to facilitate cutting operations. Metal cutting plays a crucial role in manufacturing industries, requiring new technologies to enhance quality and efficiency. Automation speeds up the cutting process, reduces human error, and minimizes defects. Moreover, improving cutting methods leads to energy savings and reduced material consumption. The research analyzes modern CNC machines, laser and plasma cutting technologies, and robotic systems. The results can be applied to increase process efficiency and improve production quality. The study introduces advanced automation systems and innovative cutting techniques, contributing to enhanced competitiveness in the industrial sector.


Keywords: *metal cutting, automation, cutting technologies, CNC, laser cutting*

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida metallarning kesish jarayoni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mahsulot sifatini va ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. An’anaviy qo‘l mehnati asosidagi kesish usullari ko‘plab kamchiliklarga ega bo‘lib, ularning samaradorligi past va inson xatolariga moyil. Shu sababli, so‘nggi yillarda metall kesish jarayonini avtomatlashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va texnologik yangiliklar tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Avtomatlashtirish nafaqat ishlab chiqarish tezligini oshiradi, balki jarayondagi aniqlik va takrorlanuvchanlikni ham yaxshilaydi. Bundan tashqari, kesish jarayonini osonlashtirish va optimallashtirish uchun zamonaviy uskunalar va ilg‘or texnologiyalar, xususan CNC (kompyuter nazoratidagi uskunalar), lazer va plazma kesish tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada metallarning kesish jarayonini avtomatlashtirishning asosiy yo‘nalishlari, mavjud muammolar va ularni hal etish usullari, shuningdek kesish jarayonining samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori sifatli mahsulotlar yaratishga va sanoat sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi undan tashqari sanoat sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

METALLARNI KESISH JARAYONIDAGI ASOSIY MUOPMMOLAR QUYIDAGILAR

1. Kesish aniqligining pastligi – noaniq yoki sifatsiz kesish natijasida mahsulot sifati pasayadi.

2. Uskunalar eskirishi va nosozligi – mexanik qismlarning tez eskirishi va texnik xizmat ko‘rsatishdagi muammolar jarayonni sekinlashtiradi.
3. Inson omilining ta’siri – qo‘l mehnatiga ko‘p bog‘liqlik xatolarga olib keladi.
4. Materialning haddan tashqari qizishi – kesish paytida material qizishi uni buzilishi va deformatsiyasiga sabab bo‘ladi.
5. Chiqindi va chiqindilarni boshqarish qiyinligi – metall parchalarining ko‘pligi ish joyini ifloslantiradi.
6. Energiyadan samarali foydalanmaslik – ko‘p energiya sarflanishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi.
7. Xavfsizlik muammolari – kesish jarayonida yuzaga keladigan jarohatlar va xavf-xatarlar.
8. Mos uskunalar va texnologiyalarning yetishmasligi – zamonaviy uskunalar bo‘lmagan joyda sifatli va samarali kesish qiyin.
9. Moslashtirilmagan kesish texnologiyalari – turli materiallarga mos kelmaydigan kesish usullari.
10. Samarasiz ish jarayoni – qo‘lda bajariladigan jarayonlar vaqtni ko‘p oladi va unumdorlikni kamaytiradi.



1-rasm



2- rasm

Ushbu 1-2 rasmlarda metal kesish jarayoni tasvirlangan

Qo'lda plazma kesgich (plasma cutter) yordamida metall varaqni kesayotgan holat tasvirlangan. U odam ehtimoliy **qalin po'lat plastina** yoki shunga o'xshash materialni kesmoqda. Plazma nurlari orqali yuqori harorat hosil bo'lib, metallni eritib yuboradi va kesish amalga oshadi. Bu turdagi kesish ishlari



ko'pincha noto'g'ri burchak, balandlik yoki tezlik tufayli deformatsiya yoki qirra sifatsiz chiqishiga olib kelishi mumkin — rasmda bu holat ehtimol shuni anglatmoqda.

USHBU MUOMMOLARNI YECHIMI SIFATIDA KESISH JARAYONINI OSONLASHTIRISH VA KESISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH USULLARINI VA YO'LARINI KO'RIB CHIQAMIZ.

Kesishni osonlashtirish (manual to semi-automatic)

1. NC-plazma jadvali (CNC plasma table)

Plazma torch harakatini kompyuter nazorati ostida boshqarib, aniqlik va takrorlanuvchanlikni sezilarli darajada oshiradi escofab.com+12modernmachinerycompany.com+12cncmasters.com+12.

Torch balandligi va tezlik real-vaqtda sozlanadi, chet sifatini yaxshilaydi va burr miqdorini kamaytiradi .

2. Yaqinlashtirilgan yordamchi qurilmalar:

Avtomatik Z-o'q balandlik nazorati (torch-height control) torch materialdan masofasini optimal darajada saqlaydi—bu deformatsiyani, uchining pog'onalanishini oldini oladi .

Samarali asbob va yupqo chamfer (bevel) funksiyalari mavjud bo'lgan yuqori aniqlikdagi (HD) plazma tizimlari burr va post-kesish ishlarining zaruratini kamaytiradi .

3. Yaxshi dasturlash va nesting:

CAD/CAM dasturlari yordamida kesish yoʻnalishi, parametrlar va material sarfi optimallashtiriladi .

Sarflanishni kamaytirish va chiqindini oldini olish uchun nesting algoritmlari qoʻllanadi.

KEISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH

Toʻliq CNC gantry sistemalari

Kompleks bir necha oʻq boʻylab harakat qiluvchi mashinalar yuqori aniqlik va tezlik bilan ishlaydi .

Torch tezligi 2000 ft/daq zaxira bilan harakatlanishi mumkin, bu yuqori hajmdagi ishlar uchun mukammal yechim

Robotli plazma kesish tizimlari

Robot manipulyatorlar notekis materialni ham aniq kesadi, ish ilgʻor va xavfsiz boʻladi mac-tech.com+9robotsdoneright.com+9robots.com+9.

Ishlab chiqarishni koʻpaytiradi, xavfsizlikni oshiradi va chizmalarni murakkab qirwa bilan bajaradi .

Metal yuzalarining sovuqligini saqlab, deformatsiyani oldini oladi .

Avtomatik tarkib chiqishini boshqarish (part removal)

Qirqilgan qismlar robot yordamida avtomatik olib tashlanadi va saralab olinadi. Bu produktivlikni oshiradi va operatorni boʻsh holda ishlash imkonini beradi .

Xavfsizlik jihatidan ham yirik buyumlarni qoʻl bilan koʻtarishdan voz kechadi



Ushbu avtomatlashtirilgan kesish uskunasi metallni aniq va toza kesadi, torch balandligini avtomatik boshqaradi, murakkab shakllarni CAD chizmalari asosida kesishga qodir. Tez ishlaydi, takroriy kesmalarni bir xil sifatda bajaradi, operator xavfsizligini ta'minlaydi va materialdan maksimal darajada samarali foydalanadi. Shu bilan

birga, ishlab chiqarish unumdorligini sezilarli oshiradi.

Bu uskuna olovli (gazli) avtomatik kesish jarayonini bajaradi. U yirik qalin metall plitalarni aniq va to'g'ri kesadi. Mashina kompyuter orqali boshqariladi, bu esa murakkab shakllarni ham osongina kesishga imkon beradi.



va

Operator faqat boshqaruv panelida ishlaydi — bu xavfsizlikni oshiradi. Jarayon tez, barqaror va yuqori sifatli natija beradi. Uskuna metall isrofi va qo'shimcha ishlov zaruratini kamaytiradi.

Biz taklif qiladigan ushbu kesish jarayonini avtomatlashtirish afzalliklari quyidagilardan iborat:

Uskunalar kompyuter boshqaruvi asosida ishlagani sababli, metallni yuqori aniqlikda va tezlikda kesish imkonini beradi. Murakkab geometrik shakllarni CAD chizmalar orqali osongina bajaradi. Jarayon davomida torch balandligi avtomatik sozlanib turadi, bu esa qirralarning sifatli chiqishini ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan tizim ish

xavfsizligini oshiradi, operatorning bevosita aloqasi kamayadi. Bundan tashqari, materialdan maksimal darajada unumli foydalaniladi, chiqindilar kamayadi va ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Shu orqali zavod yoki ustaxonalarda vaqt, resurs va mehnat tejiladi.

Xulosa qilib aytganda, avtomatlashtirilgan metall kesish uskunalari – zamonaviy sanoat uchun muhim texnologik yechim hisoblanadi. Rasm va annotatsiyalardan ko‘rinib turibdiki, bunday uskunalar nafaqat kesish sifatini oshiradi, balki ishlab chiqarish tezligini ko‘paytiradi, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va xavfsizlikni ta‘minlaydi. Kompyuter yordamida boshqariladigan tizimlar murakkab shakllarni ham aniq kesib, chiqindini kamaytiradi va materialdan maksimal darajada foydalanishga imkon yaratadi. Bu esa zamonaviy ishlab chiqarishda samaradorlik va iqtisodiy tejamkorlikni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov, O. (2015). *Zamonaviy metall kesish usullari*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Rashidov, S. (2018). *Mexanik ishlab chiqarishda avtomatlashtirish*. Toshkent: O‘zbekiston Texnika Universiteti nashriyoti.
3. Ergashev, B. (2016). *Metallni plazma va lazer bilan kesish texnologiyalari*. Toshkent: «Texnologiya» nashriyoti.
4. Islomov, J. (2019). *CNC mashinalar va ularning ishlatilishi*. Toshkent: «Muhandislik» nashriyoti.
5. Normatov, A. (2017). *Zamonaviy ishlab chiqarish usullari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.
6. Tursunov, D. (2020). *Sanoat avtomatlashtirish texnologiyalari*. Toshkent: «Fan va Texnika» nashriyoti.
7. Mirzaev, M. (2014). *Mashinasozlikda kesish jarayonlari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
8. Sobirov, R. (2013). *Metallni kesish va shakllantirish texnologiyasi*. Toshkent: «Ilm-ziyo» nashriyot

9. Qodirov, N. (2016). *Sanoatda robototexnika va avtomatlashtirish*. Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti.
10. Alimov, F. (2018). *Ishlab chiqarishda kompyuter nazorati tizimlari*. Toshkent: «Texnologiya» nashriyoti.
11. Smith, G. T., & Allais, J. M. (2018). *CNC Machining Handbook: Building, Programming, and Implementation*. Industrial Press.
12. Groover, M. P. (2016). *Automation, Production Systems, and Computer-Integrated Manufacturing*. Pearson.
13. Turner, T. (2009). *Robotic Welding, Intelligence and Automation*. Springer.
14. Kalpakjian, S., & Schmid, S. R. (2021). *Manufacturing Engineering and Technology* (7th Edition). Pearson.
15. Black, J. T. (2015). *Lean Manufacturing Systems and Cell Design*. Wiley.

TABLE OF CONTENTS

1	ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ НАРУШЕНИЯ ПРИ АЛЛЕРГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ У ДЕТЕЙ, АССОЦИИРОВАННЫХ С ГЕРПЕСВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИЕЙ Курбанова Мафтуна Шокир кизи	3-4
2	ДАЛЬНЕЙШЕЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА. Кушаев Илхом Ахтамович	5-9
3	BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH Berdiyev Muxiddin MAxmudovich, Xonimqulov Turg‘un Abduqodir o‘g‘li	10-13
4	BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH Berdiyev Muxiddin MAxmudovich, Xonimqulov Turg‘un Abduqodir o‘g‘li	14-18
5	BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI EKOLOGIK DUNYOQARASHINI TARBIYALASHDA KONSEPTUAL TAMOYILLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Axmedova Zarnigor Izzatullo qizi	19-28
6	WAYS OF DEVELOPMENT OF STRATEGIC MANAGEMENT IN JOINT-STOCK COMPANIES BASED ON THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES (USA) Rakhmatullaeva Nargiza Oktyabrevna	29-31
7	BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIGA ESTETIK TARBIYANI SINGDIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARINING AHAMIYATI Temirova Matluba Karim qizi	32-35
8	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSTAQIL SO‘Z TURKIMINI O‘RGATISH USULLARI Ramozonova ozoda, Qobilova Kamola Azamat qizi	36-39
9	THE ROLE OF STATE POLICY IN ENSURING ENVIRONMENTAL SAFETY Azizov Tukhtamysh Azamovich	40-44

10	O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI,OLIB BORILAYOTGAN ISLOHTLAR VA RIVOJLANISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR. Maftuna Ashurova, Jumaniyozova Nazokat Olim qizi	45-47
11	BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH USULLARI Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna –, Qulmatova DildoraBozarovna	48-52
12	TIME IN COLORS: CAPTURING MEMORY, PAST AND LIFE MOMENTS IN PAINTING. Sadatova Rukhshona	53-54
13	TA'LIM - TARBIYA JARAYONIGA O'QITUVCHI TOVUSH INTENSIVLIGINING TA`SIRI. Pardaboyev A., Raxmatulloyev Bobomurod	55-58
14	METALLARNI KESISH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH VA KESISH JARAYONINI OSONLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH Abdisaidov Nodirbek Akmal o'g'li	59-66
	OUTLINE	67-68